

## KUNXOJA ASARLARI TILIDA URF-ODAT VA AN'ANALARGA BOG'LIQ SO'ZLAR

Kadirniazova Biybijamal

Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10212212>

**Annotatsiya:** Maqolada qoraqalpoq mumtoz shoiri Kunxoja asarlaridagi urf-odat va an'analarga aloqador so'zlar o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** etnolingvistika, leksik birlilik, oziq-ovqat atamalari.

Etnolingvistik tadqiqotlarda xalqning tarixiy bosib o'tgan yo'llarining izlari, ya'ni og'zaki adabiyoti, dunyoqarashi, urf-odatlari, o'sha xalqning boshqa xalqlar bilan munosabati va boshqalar aks etadi. Bir so'z bilan aytganda, etnolingvistika - umumma'naviy madaniyatning asosi. Haqiqatan ham, uni o'rganish faqat tilshunoslik uchun emas, balki umuman ijtimoiy fanlar uchun nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Kunxoja she'rlari tilida ham bunday leksik birliklar ancha miqdorni tashkil qiladi hamda ular tarkibida urf-odat, an'analarga bog'liq quyidagi atamalar uchraydi:

Jasińnan jetilip dўnyaǵa shıǵıp,

*Asiq oynap*, oyin topaların jiyip (21).

Yuqoridagi misolda *asiq* (oshiq) o'yini qoraqalpoq xalqining qadim davrlardan kelayotgan bolalar o'ynining bir turi. *Asiq* (oshiq) – qo'y, echki hamda shu kabi jonli-jonivorlarning orqa oyoqlari tizzasidagi suyagi bo'lib, go'shti yeyilgan va oshqi suyagi olinib, bu bilan bolalar o'ynaydigan bo'lgan [1]. Xalq tilida, ayniqsa, dostonlar tilida uchraydigan to'y-tomosha nomlarining biri – *illaq* (uloq) o'yini. Shoir asarlari tilida *ko'kmarr* (*kókmár*) tarzida ham qo'llanilgan. Masalan:

Tarlıqtı heshbir oylamas,

*Illaq shawip*, toydan qalmas (20),

*Illaq taslaydı* qızlarǵa,

Kewli ósip bay balası (21),

*Kókmarr* shabildı toy boldı (128).

Shoir bunday etnografik birliklarni o'z asarlarida keltirish orqali qoraqalpoq xalqining boy an'analalarini, ularning nomlarini ko'rsatib bergenligini ko'rishlimiz mumkin.

### Oziq-ovqat, taom atamalari

Turkiy tillari orasida qoraqalpoq tili o'zining shakllanish va rivojlanish yo'liga ega tillardan biri. Biz bu holatlarni uning ko'plab sohalariga oid so'zlar misolida ko'rish mumkin. Shularning orasida oziq-ovqat atamalari alohida o'rinni egallab, ularning atroflicha o'r ganilish jihatlarining imkoniyatlari bor [2]. Haqiqatan ham, bunday so'zlar tilimiz leksikasining ma'lum qismini tashkil etadi. Zotan, insonning hayot kechirishi, tirikchilik qilishda oziq-ovqat mahsulotlari, taomlar muhim o'rinni egallaydi. Binobarin, ularning kelib chiqishi, shakllanishi, milliy lug'at fondidan o'rinni olishi – tabiiy holva bu holat xalqimizning milliy hayoti, tafakkur tarzini boshqa xalqlar va millatlardan farqlab turuvchi jihatdir. Shoir asarlari tilida o'sha davrdagi xalqning hayot tarzini aks ettiruvchi oziq-ovqat atamalari qo'llanilgan.

Sutdan tayyorlanadigan taomlar xalq hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, shoir asarlari tilida unumli qo'llanilganligini sut mahsulotlari bilan bog'liq atamalarni quyidagi she'r satrlarda ko'rishimiz mumkin. Masalan:

Gúze alıp *ayran* sorap hayalín (21).

Ishtim asqatıqsız bir *qara jarma* (35).

*Júweri góje* mol boldı (128).

Adib asarlarida *nan (non)*, *bilamiq (atala)* atamalari ko'p qo'llanilgan. Masalan:

*Nan* tabalmay posıp júrgen xalayıq,

Túrin tanımadım *nanniń*, jarmaniń (17).

Matnda *nan (non)* so'zi ma'no jihatdan kengayib, faqatgina oziq-ovqat ma'nosida emas, balki o'sha yerda tug'ilib, voyaga yetish, hayotda qiyinchiliklarini boshdan kechirish, mehnat qilib, azob chekib, rohatini ko'rish singari ma'nolarni ham anglatib kelgan.

Shoir ijodida *bilamiq* so'zini qo'llash orqali o'sha vaqtlardagi xalqning yashash sharoitini aks ettirgan. Masalan:

*Bilamiq* penen biziń hal,

*Bilamiq* pisti qazanda,

*Bilamiq* erkin jetpedi (128).

*Bilamiq* – maydalab donasidan yorilgan yormaning unidan, jo'xori unidan suvda qaynatilib pishirilgan suyuq ovqat, taom, yegulik [3].

Shunday qilib, oziq-ovqat atamalari leksika sohasida o'z o'rniga ega, boy mavzuviy guruhlarni tashkil etadi. Qoraqlapoq tilida bu atamalarning ko'pchiligi hozirgi davrga qadar ko'p qo'llanilib kelgan. Kunxoja asarlarida ishlatilgan bunday oziq-ovqat atamalari o'sha davrdagi xalqning jamoaviy, iqtisodiy hayoti haqida ma'lumot beradi.

### Kiyim - kechak atamalari

Shoir asarlari tilida xalqimizning milliy kiyim-kechak nomlari haqida boy etnografik ma'lumotlar berilgan. Masalan, Kunxojaning "Shopanlar" ("Cho'ponlar") she'rini olib qarayik:

*Shariqtan* shırmalap eki ayaǵı,

Ústinde *shapanı* biytlerin ağıp,

*Etiksiz* toǵáyda júrgen shopanlar (12).

Ushbu she'riy misralarda keltirilgan kiyim-kechak atamalari orqali shoirning xalq hayotini, madaniyatini, kiyim-kechak turlarini mahorat bilan tasvirganligini ko'rishimiz mumkin.

Kunxoja asarlari tilida erkak kishilarning kiyimiga aloqador quyidagicha atamalar uchraydi:

*Ton (to'n)* – erkak kishilarning ustki kiyimi, u qishdasov uqquzdan saqlaydi. Eski davrlarda har bir erkak kishida to'n kiygan. To'nning kattasi sakkiz -to'qqiz qo'y terisidan, kichigi yetti-sakkiz qo'y terisidan tikilgan. To'nning o'ziga xos jihatı – uning yag'rinida uchburchak naqsh bo'ladi, u to'nning yuqorgi qismini ko'rsatadi, cheti ham shunday materiallardan jiyaklanib, tikiladi [4]. Ushbu atama shoir asarlari tilida kam uchraydi:

Ton áperdim sırlıdan,

Shapan japtim pullıdan (144).

*Qurash* atamasi qo'y terisidan doirasimon etib tikilgan bosh kiyim, cho'irma ma'nosini bildiradi [5]. Masalan:

Qayta - qayta qaǵıp kiyip qurashti (58).

*Telpek* (telpak) atamasi bosh kiyimning bir turi, tepasi dumaloq, qo'y terisidan jiyaklangan, issiq bosh kiyim [6] ma'nosini anglatadi:

Esigine bayladım,

Eki *telpek*, bir qunan (144).

*Shapan* (chopon) atamasi o'rib to'qilgan va har xil gazlama materiallar ichiga paxta solib tikilgan uzun sirtqi kiyim [7] ma'nosini ifodalaydi. Shoir asarlarida *shapan* (chopon) atamasi ko'p qo'llanilgan. Massalan:

Ústinde *shapanı* biytleri ağıp (12).

Ómirlikke pútin *shapan* kiye almay,

Joqshılıqtan qurıp dińke, dármánım (17).

*Shekpen* (chakmon) – jundan, har xil materiallardan ichiga jun, paxta solib yoki paxta, jun solmay astarli qilib, sirab to'qilgan, sirtqi uzun ust kiyim [8] bo'lib, bu so'z shoir asarlari tilida kam uchrashadi:

*Shekpenniň shalǵayın iyinge salıp,*

Birew kórer me dep bárha taysalıp (57).

Bulardan boshqa shoir asarlarida oyoq kiyim nomlari ham ko'p uchraydi:

*Sharıq* (choriq) – mol terisidan tikiladigan turkmanlarning oyoq kiyimi, qoraqalpoqlarda ham erkak kishining oyoq kiyimi hisoblangan:

*Sharıqtan shırmalıp eki ayağı* (12),

Ayaǵımda jaman *sharıq* (38).

Shoir asarlari tilidagi *etik* (etik), *gewish* (kalish), *mási* (mahsi) kabi poyabzal nomlari qo'llanilgan. Mahalliy xalqlarda teridan yoki charimdan erkak va ayol kishilar uchun etik, mahsi, kalish tikilgan [9].

Kunxoja asarlarida xotin-qizlarning kiyim-kechaklari bilan bog'liq etnografizmler kam uchraydi:

*Oramal* (ro'mol) – ayollarning boshiga o'raydigan bosh kiyim turi [10].

*Oramal, sharshiǵa* barındı tótip (57).

*Sharshi* atamasi to'rt burchagi teng ro'mol ma'nosini anglatadi. *Parsha* – zar aralashtirilgan ipak gazlama material [11].

Birnesheler kiyip qamqa *parshalar* (29).

Shoir asarlari tilida bulardan boshqa "torqa" atamasi ham uchraydi:

Kiyipti óńkey *torqanı* (20).

Qorada qoyım turǵanda,

Kiyip edim *torqanı* (79).

*Torqa* atamasi eng qimmatli ipakning bir turi [12]. Shoir asarlaridagi bunday kiyim-kechak atamalari orqali qoraqalpoq xalqining ma'lum bir tarixiy davrdagi kiyinish madaniyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Umuman, Kunxoja she'rleridagi urf -odat va an'analarga bog'liq so'zlar aniqlash, ularni lingvistik jihatdan tahlil qilish qoraqalpoq tilining lug'at tarkibini chuqurroq bilishda, xalqimizning tarixi, etnografiyasi haqida ma'lumotlar olishda va ularni kelajak yoshlarga o'rgatishda nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Badiiy so'z ustasi o'z she'rlerida etnografizmler orqali, asosan, o'sha davrdagi qoraqalpoq xalqining madaniy hayotini, yashash tarzini, o'y-tafakkurini tasvirlab bergen.

## References:

1. Қарақалпақ тилиниң түснидирме сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1982. Т .I. Б.109.

2. Mambetnazarova M. Qaraqalpaq tiliniň túsindirme sózliginde awqat atamalarınıň beriliwi// Berdaq atındağı Qaraqalpaq mámleeklik universitetiniň xabarshısı. Nókis: 2012. №3-4. B.102.
3. Қарақалпақ тилиниң тұснандырылған сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1982.
4. Қарақалпақ тилиниң тұснандырылған сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1982. Т .I. Б.391.
5. Өтемисов А. Қарақалпақтардың өнер-кәсиплері. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1991. Б.90.
6. Қарақалпақ тилиниң тұснандырылған сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1988. Т .III. Б.192.
7. Қарақалпақ тилиниң тұснандырылған сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1992. Т .IV. Б.305.
8. Қарақалпақ тилиниң тұснандырылған сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1992. Т .IV. Б.507.
9. Қарақалпақ тилиниң тұснандырылған сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1992. Т .IV. Б.524.
10. Өтемисов А. Қарақалпақтардың өнер-кәсиплері. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1991. Б.79.
11. Қарақалпақ тилиниң тұснандырылған сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1992. Т .IV. Б.32.
12. Қарақалпақ тилиниң тұснандырылған сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1992. Т .IV. Б.90.
13. Б.Исмаилов. Күнхожаның өмири ҳәм творчество. Нөкис. «Қарақалпақстан» баспасы. 1961.